

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ULUG‘BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT” ROMANIDAGI GRADUONIM SO‘ZLAR TALQINI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti

O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Muvozanat” romanida keltirilgan graduonimlar tahlili ularning ahamiyati haqida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: gapirmoq, chaynalmoq, akkillamoq, mo‘ralamoq, un, qari, sas

Graduonimiya — leksemalarning ma‘no guruhlari a‘zolarida u yoki bu belgining darajalanishi. Bunday darajalanish oppozitsiyaning (zidlanishning) bir turi deb qaraladiva shu qatordagi bosh so‘zga nisbatan belgilanadi. Masalan: “yosh” belgisiga ko‘ra (bosh so‘z ajratib ko‘rsatilgan): buzoqtana-g‘unajin-sigir; qiz-juvon-ayol, “Belgi”dagi darajalanish asosida: chiroyli suluv-ko‘rkam-zebo; “siljish sur‘ati” belgisiga ko‘ra: yurmoq-chopmoq-yugurmoq-yelmoq kabi. Graduonimiya hodisasini o‘z vaqtida Alisher Navoiy ham payqagan va uni turkiy (o‘zbek) tilining boylik ko‘rsatkichlaridan biri sifatida izohlagan edi. U o‘zining “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida “yig‘lamoq” ma‘noli so‘zlar guruhini ayni shu darajalanish aspektida talqin qiladi: yig‘lamsinmoq-ingramoq-singramoq-o‘kurmoq-hoy-hoylamoq kabi. Demak, Alisher Navoiyni shu hodisaning ilk tadqiqotchisi desak bo‘ladi.¹ Endi esa asarning ichida berilgan graduonimlarni o‘rganib chiqamiz: **gapirmoq, aytmoq, demoq, tomoq qirmoq, chaynalmoq, akkillamoq,**

1. Gapirmoq so‘zi shu tarzda qo‘llanilgan ...Xoy bola, senga gapiryapman, tush pastga, yiqilib mayib bo‘lma tag‘in![10b]

2. Aytmoq so‘zi - Anavi Ulug‘tog‘ingizga ayting, ota, hadeb ushlab turavermay, quyoshni qo‘yvorsin [10b]

3. Demoq so‘zi - Nimalar deyapsan, o‘g‘lim, tog‘ quyoshni to‘sgani yo‘q [10b]

4. Chaynalmoq so‘zi - Tog‘a bilaman, bu mening ishim emas,, -Xalima aya chaynaldi...[14b]

5. Tomoq qirmoq so‘zi asosan uzoq kutilib aytilgan jummalarga ishlatiladi, buning isboti sifatida quyidagi misolni ko‘rishimiz mumkin: Nihoyat, uzoq davom etgan jimlikni asta tomoq qirib Odiljon aka buzdi

6. Akkillamoq so‘zi esa yuqoridagi so‘zlarga nisbatan bo‘yoqdor so‘z hisoblanadi bu so‘zni yozuvchi asarida shu tarzda qo‘llagan O‘chir! - qo‘lini musht qilib shunday dag‘dag‘a qildiki,

¹ Jamolxonov H Hozirgi o‘zbek adabiy tili - Toshkent - 2005.

oʻrnidan turib ogʻzidan tupugi sachrab akkillay boshladi. Koʻrishimiz mumkinki ushbu gaplar asosan dialog tarzda qoʻllanilib biri ikkinchisini takrorlamagan.

Nigoh, qaramoq, tikilmoq moʻralamoq soʻzlari asarning turli xil joylarida takror kelgan boʻlsada har birida oʻz oʻrniga ega.

1.Nigoh soʻzini yozuvchi asarida shunday qoʻllagan: Muhammadjon aka vajohatli nigohini yana bir muddat uni oʻchib, shalvirab qolgan qaynogʻasiga tikib turdi [27]

2.Qaramoq U bir chaqirim yarim chaqirim odim bosar sinf orqasiga-ochilgan yoʻlga qarab ketardi [12b]

3.Tikilmoq Unga bir dam tikilib turarkan, avtobusning oʻzi solgan yoʻldan yurayotganini koʻrib sakrab yubordi [12b]

4.Moʻralamoq Koʻcha tomonga qaragan derazadan Turgʻun xola moʻraladi [11b]. Asarda oʻzbek millatining shoʻro tuzumidan bozor iqtisodiyotiga oʻtish davridagi burilishlari, kechmishlari haqqoniy, shafqatsiz real tasvirlarda Yusuf va uning doʻstlari Said, Mirazim hayoti misolida yoritib berildi. Asarda ishtirok etgan har bir qahramon hayot tarzida iztiroblarga yuzlanib, muvozanatni saqlay olmay, ruhiyatlarida qalqishlar yuzaga kelganini guvohi boʻlamiz. Ijodkor roman voqealari tasvirida kontras usulidan unumli foydalanib, syujetni ana shunday qarama-qarshiliklar bilan boyitib boradi.

Romanda **iliq issiq** kabi graduonimlar ham uchragan.

1. Iliq Qishloqdagi odamlarga oʻxshamaydigan sirli qarindoshiga nisbatan allaqanday iliqlik paydo boʻldi. [16b] ushbu gapda iliqlik soʻzi koʻchma maʼnoda qoʻllanilib iliqlik munosabat nazarda tutilgan.

2. Issiq Ertani kutaylik issiq non yopaylik

Romanda **sado, sas, ovoz, un** kabi turli shakllardagi graduonimlarni uchratish mumkin.

1. Sado Shu yerdaman kiraveringlar! degan sado yoʻq edi bugun [22b]

2. Ovoz Mening bolalarimga ovozingni koʻtarma!

3. Sas Kattakon zalda yangi barg solinganda ipak qurtining harakatidan chiqadigan shitirlashdek yengil bir sas bor edi [30b]

4. Un Muhammadjon aka vajohatli nigohini yana bir muddat uni oʻchib shalvirab qolgan qaynogʻasiga tikib turdi [27b]

Asarda **yoshroq, qari, yoshi ulugʻ** singari graduonimlarga ham toʻxtalib oʻtsak:

1. Yoshroq Muhammadjon aka yoshroq boʻlganligi bois poygastroqdan joy olgan [27b]

2. Qari Arslonning oʻligi ham arslon deganlaridek qarib taxtiravondan tushgan boʻlsada Muhammadjon aka baribir Muhammadjon aka edi [27b]

3. Yoshi ulugʻ Davradagilardan bir ikki yoshi ulugʻrogʻi zudlik bilan qoʻzgʻalishib qaynagʻani yelkasidan tutib oʻrniga oʻtqazishdi [26b]

Ko‘z yosh to‘kmoq, yig‘lamoq, xo‘ngir-xo‘ngir yig‘lamoq

1. Ko‘z yosh to‘kmoq Ulardan kimlardir oshkora ko‘z yosh to‘kib o‘z hamdardligini bildirgan [29b]

2. Yig‘lamoq Muhammadjon aka ko‘nglini achchiq achchiq to‘ldirib yig‘latib yig‘lar, yig‘lagan sari hidlab to‘yolmasdi [29b]

3. Xo‘ngir xo‘ngir yig‘lamoq Uzoq vaqt kichik bir shaharda yashasalar ham bir-birovlari mehriga zor bo‘lib o‘tayotgan ota-bolaning quchoqlashib xo‘ngir xo‘ngir yig‘lashlari, necha zamondir bo‘g‘izlarida toshdek qotib qolgan muhabbatlarini bugun ko‘rdi [29b]

So‘zlarning darajalanish qatorida borliqning eng umumiy qonunyalari nomoyon bo‘ladi: Darajalanish qatorida belgining darajalanib, oshib yoki kengayib borishida miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi yuzaga chiqadi. Graduonimlar matn tarkibida qancha ko‘p qo‘llanilgan bo‘lsa, o‘quvchi uchun bu asar juda qiziqarli va mazmunli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulug‘bek Hamdam Muvozanat - Toshkent: Yangi asr avlodi-2021
2. Hakimova H Semasiologiya - Toshkent: 2008.
3. Sharif Bobojonov Ikrom Ismoilov O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati – Toshkent: Yangi asr avlodi - 2007.
4. Jamolxonov H Hozirgi o‘zbek adabiy tili - Toshkent - 2005.